

**SHART MAYLIDAGI BIRLIKLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA
TARJIMA QILISHDA PRAGMATIK MAQSADNING IFODALANISHI (RAY
BRADBURYNING "THE MARTIAN CHRONICLES" ASARI MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20181253>

Usmonova Zarina Khabibovna

Associate Professor of the Department of English Linguistics,

Email: z.h.usmonova@buxdu.uz

Samandarov Islom Ikromovich

1st year Master's student in Linguistics (English Language)

Email: islom.samandarov92@gmail.com

Abstract

This article analyzes the expression of pragmatic purpose in the translation of conditional mood units from English into Uzbek based on Ray Bradbury's "The Martian Chronicles". The study examines different grammatical forms of the conditional mood, their semantic and pragmatic features, and translation transformations occurring in the translation process. The communicative function of conditional constructions, their emotional and expressive influence, and their role in shaping the literary text are also discussed. The research proves that preserving pragmatic intention is one of the main tasks of a translator. Comparative, pragmatic, and contextual analysis methods were applied during the study. Conditional constructions such as "if", "unless", "provided that", and "suppose" were analyzed in their Uzbek translations. The findings show that literal translation is not always sufficient to preserve pragmatic meaning and that functional equivalents play a significant role in literary translation. The article also highlights the importance of conditional structures in reflecting psychological states, hypothetical situations, and interpersonal relations in the novel. The results of the study may contribute to the development of translation studies and pragmalinguistics.

Key words

conditional mood, pragmatics, translation, Ray Bradbury, The Martian Chronicles, pragmatic purpose, literary translation, functional equivalence, modal constructions, pragmalinguistics.

Аннотация

В данной статье рассматривается выражение прагматической цели при переводе единиц условного наклонения с английского языка на узбекский на основе произведения Рэя Брэдбери «Марсианские хроники». В ходе исследования анализируются грамматические формы условного наклонения, их семантические и прагматические особенности, а также трансформации, возникающие в процессе перевода. Особое внимание уделяется коммуникативной функции условных конструкций, их эмоционально-экспрессивному воздействию и роли в формировании художественного текста. В статье доказывается, что сохранение прагматической цели является одной из главных задач переводчика. В исследовании использованы сравнительный, прагматический и контекстуальный методы анализа. Были рассмотрены конструкции с *“if”*, *“unless”*, *“provided that”*, *“suppose”* и способы их передачи на узбекский язык. Результаты исследования показывают, что буквальный перевод не всегда способен сохранить прагматическое значение, поэтому важную роль играют функциональные эквиваленты. Работа имеет значение для дальнейшего развития переводоведения и прагмалингвистики.

Ключевые слова

условное наклонение, прагматика, перевод, Рэй Брэдбери, «Марсианские хроники», прагматическая цель, художественный перевод, функциональный эквивалент, прагмалингвистика.

Kirish (Introduction). Til inson tafakkuri va kommunikativ faoliyatining eng muhim vositasi hisoblanadi. Har bir til birligi ma’lum kommunikativ maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy matnda grammatik birliklarning pragmatik vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shart mayli ham shunday grammatik kategoriyalardan biri bo’lib, u shart, taxmin, ehtimol, istak va muqobil vaziyatlarni ifodalashda faol qo’llanadi. Ingliz tilida shart mayli birliklari ko’pincha *“if”*, *“unless”*, *“provided that”*, *“supposing”* kabi konstruktsiyalar yordamida ifodalanadi va ular matnda pragmatik yuklamani shakllantirishga xizmat qiladi [2, 45].

Tarjima jarayonida shart maylining pragmatik maqsadini to’liq saqlab qolish murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Chunki turli tillarda grammatik strukturalar va kommunikativ vositalar bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilidagi shart mayli birliklarini o’zbek tiliga tarjima qilishda tarjimon nafaqat grammatik mazmunni, balki matnning emotsional, uslubiy va pragmatik xususiyatlarini ham hisobga olishi zarur [5, 71].

Ray Bradburyning “The Martian Chronicles” asari fantastik adabiyotning yirik namunalardan biri boʻlib, unda insoniyat, sivilizatsiya, urush, texnologiya va axloqiy qadriyatlar masalasi badiiy talqin qilingan. Asarda qahramonlarning ruhiy holati, ehtimoliy vaziyatlar va kelajak haqidagi taxminlar koʻplab shart mayli konstruktsiyalari orqali ifodalanadi [1, 163]. Shu sababli mazkur asar shart maylining pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – “The Martian Chronicles” asarida uchraydigan shart mayli birliklarini ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilishda pragmatik maqsadning ifodalanishini tahlil qilishdir. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, lingvopragmatik tahlil va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda shart maylining badiiy matndagi pragmatik funksiyasi va uning oʻzbek tiliga tarjima qilinishidagi oʻziga xos jihatlar Ray Bradbury asari misolida oʻrganiladi.

Metodologiya va materiallar (Methods and Materials). Tadqiqot davomida Ray Bradburyning “The Martian Chronicles” asaridagi shart mayli birliklari pragmatik va qiyosiy tarjima tahlili asosida oʻrganildi. Tadqiqot materiali sifatida asarning inglizcha original matni hamda rus tiliga tarjima qilingan varianti tanlab olindi. Ingliz tilidagi shart mayli birliklari rus tilidagi tarjima bilan qiyoslandi va undan oʻzbek tiliga bilvosita tarjima usullari tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- qiyosiy-tarjima tahlili;
- pragmatik tahlil;
- kontekstual tahlil;
- lingvostilistik tahlil.

Tahlil jarayonida “if”, “unless”, “if only”, “suppose”, “provided that” kabi konstruktsiyalarning pragmatik funksiyasi aniqlanib, ularning tarjimada qanday transformatsiyaga uchrashi oʻrganildi. Tadqiqotning nazariy asosini pragmalogika va tarjimashunoslikka oid ilmiy manbalar tashkil etdi.

Natijalar (Results). Pragmatika til birliklarining nutq jarayonidagi funksional va kommunikativ xususiyatlarini oʻrganuvchi tilshunoslik yoʻnalishi hisoblanadi. Pragmatik maqsad esa muallif yoki nutq subyektini tomonidan maʼlum bir kommunikativ niyatni amalga oshirish uchun qoʻllanadigan til vositalari orqali yuzaga chiqadi [3, 56]. Badiiy matnda pragmatik maqsad qahramonlarning ruhiy holati, emotsional kechinmalari va muallifning estetik qarashlarini ifodalashda muhim rol oʻynaydi.

Shart mayli ingliz tilida real yoki noreal shartni ifodalovchi grammatik konstruktsiyalar orqali yuzaga chiqadi. Ingliz tilidagi conditional sentences odatda uch turga bo'linadi: real shart, ehtimoliy shart va noreal shart. Ularning har biri ma'lum pragmatik maqsadni ifodalaydi [4, 93]. Masalan:

"If we stay here, we will die."

"Если мы останемся здесь, мы погибнем" [16, 57].

"Agar biz shu yerda qolsak, halok bo'lamiz".

Mazkur gapda qahramonning xavotiri va ogohlantirish maqsadi ifodalanmoqda. Tarjimada pragmatik maqsad saqlangan bo'lsa-da, emotsional ta'sir o'zbek tilida kuchaytirilgan. Tarjimada grammatik mazmun saqlangan bo'lsa-da, ingliz tilidagi emotsional urg'uni o'zbek tilida intonatsiya va kontekst orqali berishga to'g'ri keladi.

Ray Bradbury asarlarida shart mayli ko'pincha futuristik va psixologik tasvirlarni yaratishda qo'llanadi. "The Martian Chronicles" asarida Mars sayyorasiga oid voqealar insoniyatning qo'rquv, umid va taxminlari bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli shart mayli konstruktsiyalari pragmatik yuklamani kuchaytiradi [7, 102]. Masalan:

"If the Martians knew we were here, they would destroy us."

"Если бы марсиане знали, что мы здесь, они уничтожили бы нас" [16, 84].

"Agar marsliklar bizning bu yerda ekanligimizni bilishsa edi, bizni yo'q qilishardi".

Mazkur gap noreal shart ma'nosini anglatadi va qo'rquv hamda ehtimoliy xavfni ifodalaydi. Bu yerda "edi" va "-ardi" qo'shimchalari noreal vaziyatni ifodalash uchun qo'llanadi. Tarjimada pragmatik maqsadni saqlash uchun tarjimon ko'pincha transformatsiyalardan foydalanadi. Tarjima transformatsiyalari grammatik almashtirish, semantik kengaytirish, qisqartirish va funksional ekvivalentlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi [6, 84]. Masalan:

"Unless they leave Mars immediately, they may never survive."

"Если они немедленно не покинут Марс, они могут не выжить" [16, 96].

"Agar ular Marsni zudlik bilan tark etmasalar, omon qolishlari qiyin bo'ladi".

Mazkur gapda ogohlantirish va xavotir pragmatik maqsadi ifodalangan. Ingliz tilidagi "unless" bog'lovchisi o'zbek tilida inkor shakli yordamida ifodalangan.

Pragmatik maqsadni saqlashda kontekstning ahamiyati katta. Chunki ayrim hollarda shart mayli birliklari yashirin ma'noni ifodalaydi. Masalan, tahdid, maslahat yoki iltimos shaklidagi gaplar grammatik jihatdan oddiy shart gap bo'lsa-da, pragmatik jihatdan boshqa maqsadni anglatadi [8, 211].

"If you touched that machine, everything would change."

Bu gapda oddiy shart emas, balki ogohlantirish ma'nosi mavjud. O'zbek tilida "Agar sen o'sha mashinaga tegsang, hamma narsa o'zgarib ketardi" tarzida tarjima qilinadi. Tarjimada ogohlantirish ohangini saqlash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, shart mayli qahramonlarning ichki monologida ham faol qo'llanadi. Bradbury qahramonlari ko'pincha "if only" konstruktsiyasi orqali armon va afsusni ifodalaydi. Masalan:

"If only Earth had listened to us."

"Если бы только Земля нас послушала" [16, 121].

"Qaniydi, Yer aholisi bizni tinglaganida edi".

Mazkur gapda afsus va armon ma'nosi pragmatik jihatdan kuchli ifodalangan. Bu yerda "qaniydi" yuklamasi pragmatik-ekspressiv ma'noni kuchaytiradi.

Badiiy tarjimada pragmatik ekvivalentlik masalasi muhim o'rin tutadi. Eugene Nida tarjimada "dynamic equivalence" tushunchasini ilgari surib, tarjima o'quvchida original matndagi kabi ta'sir uyg'otishi kerakligini ta'kidlagan [9, 118]. "The Martian Chronicles" asaridagi shart mayli birliklarini tarjima qilishda ham aynan shu tamoyil muhim ahamiyatga ega.

Asarda uchraydigan quyidagi misol bunga yaqqol dalil bo'la oladi:

"If people could remember their past, they would not repeat the same mistakes."

"Если бы люди могли помнить своё прошлое, они не повторяли бы тех же ошибок" [16, 147].

"Agar odamlar o'z o'tmishini eslay olganlarida edi, o'sha xatolarni takrorlamagan bo'lardilar."

Bu gapda shart mayli falsafiy va didaktik pragmatik maqsadni ifodalagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi shart mayli birliklarini o'zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi usullar keng qo'llanadi:

1. Grammatik moslashtirish;
2. Funksional ekvivalentdan foydalanish;
3. Kontekstual tarjima;
4. Emotsional-ekspressiv vositalarni qo'shish;
5. Modal birliklarni almashtirish.

Bundan tashqari, tarjimada pragmatik maqsadni saqlash tarjimonning individual mahoratiga ham bog'liq. Tajribali tarjimon matnning uslubiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchiga original matndagi ta'sirni yetkazishga harakat qiladi [10, 52].

Ray Bradburyning uslubi poetik va metaforik xususiyatga ega bo'lgani sababli, uning asarlarida shart mayli birliklari ko'pincha falsafiy ma'no kasb etadi.

Bu esa tarjimondan nafaqat til bilimini, balki madaniy va estetik kompetensiyani ham talab qiladi [11, 141].

Muhokama (Discussion). Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi shart mayli birliklari tarjimasida pragmatik maqsadni saqlash literal tarjimaga qaraganda muhimroq hisoblanadi. Ayniqsa, Ray Bradburyning poetik va metaforik uslubida shart mayli birliklari qahramonlarning psixologik holati hamda futuristik tasvirlarni ifodalashda muhim vazifani bajaradi.

Rus tilidagi tarjimalarda ko'pincha original pragmatik yuklama saqlangan bo'lsa-da, ayrim hollarda emotsional-ekspressiv vositalar kuchaytirilgan. O'zbek tiliga bilvosita tarjimada esa pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash uchun qo'shimcha modal birliklar va ekspressiv yuklamalardan foydalanish talab qilindi.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- shart mayli birliklari matnda kommunikativ strategiyani belgilaydi;
- pragmatik maqsadni saqlash tarjimaning sifatini oshiradi;
- bilvosita tarjimada semantik siljishlar yuzaga kelishi mumkin;
- funksional ekvivalentlardan foydalanish pragmatik ta'sirni saqlashga yordam beradi.

Mazkur natijalar tarjimashunoslik va pragmatolingvistika uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Tahlil davomida ingliz tilidagi shart mayli konstruktsiyalarining rus va o'zbek tillaridagi tarjimalari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Birinchi misolda *"If we stay here, we will die"* gapi rus tilida *"Если мы останемся здесь, мы погибнем"* shaklida tarjima qilingan bo'lib, o'zbek tiliga *"Agar biz shu yerda qolsak, halok bo'lamiz"* tarzida bilvosita tarjima qilindi. Ushbu gapda asosiy pragmatik maqsad ogohlantirish va xavotirni ifodalashdan iborat. Tarjimada grammatik moslashtirish usulidan foydalanilgan.

Ikkinchi misolda *"If the Martians knew we were here, they would destroy us"* konstruktsiyasi rus tilida *"Если бы марсиане знали, что мы здесь, они уничтожили бы нас"* deb tarjima qilingan. O'zbek tilidagi bilvosita tarjima esa *"Agar marsliklar bizning bu yerda ekanligimizni bilishsa edi, bizni yo'q qilishardi"* ko'rinishida berildi. Ushbu gapda qo'rquv va ehtimoliy xavf ma'nosi ustuvor bo'lib, tarjimada funksional ekvivalent usulidan foydalanilgan.

Uchinchi misolda *"Unless they leave Mars immediately, they may never survive"* gapi rus tilida *"Если они немедленно не покинут Марс, они могут не выжить"* tarzida ifodalangan. O'zbek tiliga *"Agar ular Marsni zudlik bilan tark etmasalar, omon qolishlari qiyin bo'ladi"* deb tarjima qilindi. Bu yerda ogohlantirish pragmatik maqsadi saqlanib qolgan bo'lib, kontekstual tarjima usuli qo'llangan.

To'rtinchi misolda *"If only Earth had listened to us"* konstruktsiyasi rus tilida *"Если бы только Земля нас послушала"* deb berilgan. O'zbek tiliga esa *"Qaniydi Yer aholisi bizni tinglaganida edi"* tarzida tarjima qilingan. Ushbu gapda afsus va armon ma'nosi kuchli pragmatik yuklama sifatida namoyon bo'ladi. Tarjimada emotsional-ekspressiv vositalardan foydalanish kuzatiladi.

Beshinchi misolda *"If people could remember their past, they would not repeat mistakes"* gapı rus tilida *"Если бы люди могли помнить своё прошлое, они не повторяли бы тех же ошибок"* shaklida tarjima qilingan. O'zbek tiliga esa *"Agar odamlar o'tmishini eslay olganlarida edi, o'sha xatolarni takrorlamagan bo'lardilar"* tarzida bilvosita tarjima qilindi. Mazkur gapda didaktik va falsafiy pragmatik maqsad ustuvor bo'lib, modal moslashtirish usulidan foydalanilgan.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi shart mayli birliklari o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda faqat grammatik jihatdan emas, balki pragmatik nuqtai nazardan ham qayta ishlanadi. Tarjima jarayonida emotsional-ekspressiv vositalar, modal birliklar va funksional ekvivalentlardan foydalanish pragmatik ta'sirni saqlab qolishga yordam beradi.

Shuningdek, *"The Martian Chronicles"* asarida shart mayli birliklari insoniyatning kelajak haqidagi xavotiri, texnologik taraqqiyotning salbiy oqibatları va axloqiy tanazzul kabi mavzularni ochishda faol xizmat qiladi. Tarjimada ushbu ma'nolarni saqlab qolish o'quvchining matnı to'g'ri qabul qilishi uchun zarurdir. Pragmatik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, shart mayli birliklari faqat grammatik vosita emas, balki matnning kommunikativ strategiyasini belgilovchi muhim unsur hisoblanadi. Ayniqsa, fantastik asarlarda ehtimoliy va noreal vaziyatlarni tasvirlashda shart maylining o'rni katta.

Xulosa. (Conclusion). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi shart mayli birliklarini o'zbek tiliga tarjima qilishda pragmatik maqsadni saqlash muhim ahamiyatga ega. Ray Bradburyning *"The Martian Chronicles"* asarida qo'llangan shart mayli konstruktsiyalari qahramonlarning ruhiy holatini, ehtimoliy vaziyatlarni va muallifning falsafiy qarashlarini ifodalashga xizmat qilgan.

Tarjima jarayonida literal tarjima har doim ham pragmatik maqsadni to'liq ifodalab bera olmaydi. Shu sababli funksional ekvivalent, kontekstual tarjima va emotsional-ekspressiv vositalardan foydalanish talab etiladi. Tadqiqot davomida *"if"*, *"unless"*, *"if only"* kabi konstruktsiyalar tarjimasida turli transformatsiyalar qo'llanilishi aniqlandi.

Shuningdek, pragmatik maqsadni saqlash tarjimonning lingvistik va madaniy kompetensiyasiga bog'liq ekanligi kuzatildi. Badiiy tarjimada grammatik aniqlik bilan bir qatorda estetik va emotsional ta'sirni saqlash ham muhimdir.

Mazkur tadqiqot natijalari pragmalingsvistika, tarjimashunoslik va badiiy matn tahlili sohalarida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sokolova, E. N. (2025). Comparative Constructions in Ray Bradbury's "The Martian Chronicles". *Nauchnyi Dialog*, 14(5), 162–181.
2. Swan, M. (2016). *Practical English Usage*. Oxford: Oxford University Press.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). *A Comprehensive Grammar of the English Language*. London: Longman.
5. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.
6. Komissarov, V. N. (1990). *Theory of Translation (Linguistic Aspects)*. Moscow: Higher School.
7. Usmonova, Z. H. (2023). Translation Methods and Features of Indirect Translation in "The Martian Chronicles" by Ray Bradbury. *Scientific Journal of Fergana State University*, 29(1), 44–49.
8. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.
9. Nida, E. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: Brill.
10. Baker, M. (2011). In *Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
11. Habibovna, U. Z., & Sultanmuradovna, S. D. (2025). Semantic and Pragmatic Analysis of The Functional Forms of Verbs in "The Martian Chronicles" by Ray Bradbury. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*, 3(5), 23–27.
12. Брэдбери, Р. (1991). *Марсианские хроники*. Перевод с английского Л. Жданова. Москва: Мир.